



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

2026/5



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





2026

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

3-JILD 5-SON



YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI
TO'PLAMI

3 - JILD, 5 - SON
2026



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

**TA'LIM MUHITNI BOSHQARIDA SIFAT SIYOSATI VA
MAQSADLARINI BOSHQARISH**

Andijon davlat texnika instituti

MSvaSB mutaxassisligi magistranti : **T.B.Jo`raboyev.**Ilmiy raxbar : **Sh.A. Sulaymanov**


Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish tizimini xalqaro ISO 21001:2018 va ISO 9001:2015 standartlari asosida transformatsiya qilish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda ta'lim tashkilotlarining sifat siyosatini ishlab chiqish mezonlari, strategik maqsadlarni belgilash tartibi va ularni PDCA (Rejala-Bajar-Tekshir-Harakat qil) sikli asosida boshqarish modeli tahlil qilingan. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti misolida sifat siyosatining asosiy yo'nalishlari va kutilayotgan natijaviylik ko'rsatkichlari keltirilgan. Shuningdek, maqolada ta'lim muhitini samarali boshqarishda manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini qondirish va xalqaro tajribalarni joriy etishning ahamiyati ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar. ISO 21001:2018, ISO 9001, ta'lim menejmenti tizimi (TTMT), sifat siyosati, strategik maqsadlar, PDCA sikli, transformatsiya modeli, oliy ta'lim, ta'lim sifati, kutilayotgan natijalar, monitoring.

Hozirdagi biznes muhitida ta'lim muassasalarini ISO 21001:2018 Educational Organizations-Management systems for educational organizations. Requirements with guidance for use. Ta'lim tashkilotlari menejment tizimlari. Talablar va qo'llash bo'yicha tavsiyalar talablarni joriy etish bo'yicha xalqaro standartiga muvofiq bo'lishi o'qitish jarayoni natijaviylikni oshishiga yordam bermoqda.

Oliy ta'lim tashkilotini xalqaro standartlar talablariga muvofiq transformatsiya modeli ISO 9001 va 21001 Xalqaro standartlari talablari asosida ishlab chiqilgan. Asosiy jarayonlar PDCA tsikli asosida boshqariladi, boshqaruv jarayoni va yordamchi jarayonlar funktsiya bajariladi. Sifat siyosat va maqsadli ko'rsatkichlarini o'rnatish, transformatsiya ishlari bo'yicha prorektor transformatsiyalashtirish dasturi ishlab chiqish, TTMT hujjatlarini ishlab chiqish va joriy etish ichki audit o'tkazish va nomuvofiqliklarni bartaraf etish yuqori rahbariya tahlilini va qarorlari bajarilishini taminlash quydagi modelda ko'rishimiz mumkin.





1 rasm. Oliy ta'lim tashkilotini xalqaro standartlar talablariga muvofiq transformatsiya modeli

Transformatsiya ishlari bo'yicha prorektor ta'lim tashkilotlariga o'zgartirishlar kiritish uchun takliflar ishlab chiqadi va ularni amalga oshirish uchun mas'ul shaxsh xisoblanari. TTMT hujjatlarini ishlab chiqish va amaliyotda joriy etish orqali sifat menejmentini doimiy ishlashini ta'minlaydi. Ichki audit o'tkazish va tizim kamchiliklarini aniqlash nomuvofiqliklarni bartaraf etada bu esa samaradorlikni oshishiga imkon beradi. Yordamchi jarayonlar xodimlarni boshqarish, o'quv resurlarini boshqarish, infratuzilmani boshqarish asosiy jarayonlarni samaraliy ishlashi uchun zarur sharoitlar yaratadi.

Ta'lim muassasalarni natijaviylikka erishishlarida sifat siyosati va unga muvofiq maqsadlarni o'rnatish juda muhimdir. ISO 21001:2018 Ta'lim tashkilotlari menejment tizimlari standarti siyosat va maqsadlarni o'rnatishga quyidagi talablarni qo'ygan.

ISO 21001:2018, 3.7 Siyosat -tashkilotning maqsadi va yo'nalishi (3.1), uning yuqori rahbariyati tomonidan rasmiy ravishda ifodalanganlik (3.5)

ISO 21001:2018, 5.2 Siyosat

5.2.1 Siyosatini ishlab chiqish

Yuqori rahbariyat tashkilot siyosatni ishlab chiqishi, joriy etishi va yaroqligini tahminlashi lozim, qaysiki:

a) tashkilotning missiyasi va strategiyasini qo'llab-quvvatlash;




- b) tashkilotning maqsadi va muxitiga muvofiqligini tahminlash;
- c) ta'lim tashkilotining maqsadlarini o'rnatishga asos bo'lishi;
- d) talablarni muvofiqlik majburiyatini olish;
- e) TTMTni doimiy takomillashtirish majburiyati olish;

5.2.2 Siyosatidan xabardorlik

Ta'lim tashkiloti siyosati bo'lishi lozim:

- a) hujjatlashtirilgan ma'lumot shakl bo'lishi, foydalanishga qulay va yaroqli saqlashi;
- b) xodimlarga tushinarli va yetkazilgan, tashkilot ichida qabul qilingan;
- c) tegishli manfaatdor tomonlar uchun qulay usulda tanisha olishlik.



2-rasm. Siyosatdan barchani xabardor bo'lishi.

Yuqoridagi ISO 21001:2018 standartining 5.2.1 Siyosatini ishlab chiqish bandi talablariga muvofiq universitetning siyosati ishlab chiqdi, joriy etildi va o'quvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar xabardorlikni tahminladi:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining ta'lim tashkilotlarini boshqaruv tizimiga oid siyosati

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Respublikamizdagi yirik ilmiy-mahrifiy markazlardan biri bo'lib, o'z boy tarixi va shakllangan ijobiy anhanalariga ega. Universitetning yuqori malakali ilmiy-pedagoglar jamoasi talabalarga sifatli bilim berib kelmoqda.

Har tomonlama rivojlangan, davlat va jamiyat oldidagi o'z mashuliyatini his qiluvchi, mamlakat kelajagi uchun vijdonan va halol mehnat qiluvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qiluvchi, xalqaro ta'lim maydonida raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash Universitetning asosiy maqsadi hisoblanadi.





Universitetning ta'lim tashkilotlarini boshqaruv tizimi sohasidagi siyosati berilayotgan xizmatning sifatini yaxshilashga, boshqaruv tizimiga tahsir o'tkazuvchi xavflarni aniqlab uni bartaraf etgan holda faoliyatni ishchi holatda saqlab turishga qaratilgandir.

Siyosatning asosiy yo'nalishlari:

-O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlariga va universitet faoliyatida qo'llaniladigan xalqaro standartlar talablariga rioya qilish;

-Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining ta'lim tashkilotlarini boshqaruv tizimini doimiy takomillashtirilishini tahminlash;

-zamonaviy talablar, ilg'or xalqaro tajriba va mehnat bozori ehtiyojlari asosida yuqori malakali, ijodiy fikrlaydigan kadrlar tayyorlashni tahminlash;

-talabalarning fundamental, bazaviy, shuningdek, amaliy kasbiy tayyorgarligini tahminlaydigan o'quv reja va dasturlar asosida bakalavrlar, magistrlar tayyorlash;

-fanlarni tanlash imkoniyatini tahminlagan holda Yevropa kredit tizimini (European Credit Transfer and Accumulation System) joriy etish, shu jumladan, talabalar o'quv yuklamasi hajmini aniqlashning xalqaro shartli birliklari (kreditlar)ga o'tkazish va jamlash tizimini qo'llagan holda o'quv jarayonini tashkil etish;

-universitetning professor-o'qituvchilari tarkibini yuqori darajada kasbiy pedagogik mahoratga, huquqiy va siyosiy madaniyatga ega mutaxassislar bilan boyitish;

-rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ta'lim va ilmiy muassasalari bilan hamkorlikni, qo'shma huquqiy tadqiqotlarni, professor-o'qituvchilar va talabalar o'zaro almashinuvini faollashtirish;

-davlat boshqaruvi organlari, jamiyatning tegishli sohalari hamda boshqa tashkilotlarda amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislarni ta'lim jarayoniga keng jalb etish;

-pedagog kadrlarning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining yuqori malakali mutaxassislarni o'quv, ilmiy-metodik ishlarini tashkil etish jarayonlariga jalb qilish;



-“HEMIS” platformasini yoki oliy ta’lim tizimini avtomatik boshqarishga qaratilgan boshqa tizimlarni joriy etgan holda, ochiq, shaffof, subektivlik va suiistehmolchiliklardan holi bo’lgan ta’lim muhitini yaratish;

Universitet rahbariyati quyidagi majburiyatlarni o’z zimmasiga oladi:


-ISO 9001:2015 va 21001:2018 xalqaro standartlariga muvofiq universitet boshqaruv tizimini doimiy takomillashtirish uchun javobgar bo’lish;

-o’rnatilgan maqsad va vazifalarga erishish uchun universitet faoliyatini tahlil qilish va barcha kerakli resurlarni ajratish;

-pedagog xodimlarning fikr va takliflarini o’rganish va zarur choralarni ko’rish;

-ushbu siyosatning universitet ichida amalga oshirilishini tahminlash;

ISO 21001:2018, 3.8 Maqsad erishiladigan natijalar



3-rasm. Muvofaqiyatli kelajakka erishish.

ISO 21001:2018, 6.2 Ta’lim tashkilotining maqsadlari va ularga erishishni rejalashtirish

6.2.1 Tashkilot, vazifasi darajasi va jarayonlariga muvofiq tahmin doirasida Ta’lim menejmenti tizimlari uchun zarur bo’lgan maqsadlarni o’rnatishi lozim.

Missiya va uzoqni ko’ra olishi bilan bog’liq ta’lim tashkilotining management tizimlari strategiyasi belgilash ularga muvofiq ravishda o’lchamli, muddatli, erishiladigan, darajali va javobgarlari aniqlangan maqsadlar qo’yish va bajarilishi monitoringni olib borish asosida ta’lim tashkilotlari muvofaqiyatli kelajakka erishadilar.



Xulosa o'rnida aytish mumkinki, zamonaviy raqobat muhitida oliy ta'lim muassasalarining muvaffaqiyati ularning xalqaro standartlarga qanchalik moslashganligi bilan belgilanadi. **ISO 21001:2018** standartini joriy etish shunchaki hujjatlar to'plamini yaratish emas, balki muassasaning missiyasi va strategiyasiga mos keladigan aniq sifat siyosatini shakllantirish demakdir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki:

Tizimli yondashuv: Ta'lim jarayonlarini PDCA sikli asosida boshqarish xatolarni o'z vaqtida aniqlash va doimiy takomillashishni ta'minlaydi.

Maqsadli boshqaruv: Sifat ko'rsatkichlarining (ilmiy salohiyat, xalqaro sertifikatlar, nashrlar) yillar kesimida aniq belgilanishi muassasa rivojlanishini o'lchash imkonini beradi.

Shaffoflik: HEMIS kabi raqamli platformalarning joriy etilishi va boshqaruvda subyektivlikning kamayishi ta'lim muhitining jozibadorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mamatkulov, S. The importance of the ISO 21001:2018 standard in guaranteeing the quality of higher education // MMIT Proceedings. — 2024. — B. 211–214. — DOI: 10.61587/mmit.tiue.uz.v1i1.89.

2.A.A.Mamajonov, D.T.Sultonova Improving the effectiveness of the teaching process based on ISO 21001 requirements. Journal of Engineering and Technology. Texas - USA Vol. 15, Issue 1; Jun 2025, 41-46. (№14, ResearchBib)

3.D.T.Sultonova Ta'lim sohasida raqobatbardosh va samarali boshqaruvning afzalliklari ISO 21001:2018 ning asosiy elementlari. Mashinasozlik ilmiy-texnika jurnali scientific and technical journal. Andijon:– 2024. Maxsus son 610-613 b. (05.00.00. OAK Rayosatining 2021-yil 30-dekabrdagi 310/14.2-son qarori)

4.A.A.Мамажонов Д.Т.Султонова Согласованность образовательных стандартов. Автомобильная промышленность Технический журнал. Москва. 2025: (05.00.00. 6)

